

**Sharopov Sherzod Shirinboy o'g'li**  
Buxoro davlat pedagogika instituti,  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

## REFLEKTIV TA'LIM YONDASHUVI VA UNING DARS JARAYONIDA QO'LLANILISHI

**Annotatsiya.** *Reflektiv amaliyot o'qituvchilarni tayyorlash va ularning professional rivojlanish dasturlariga, xususan, pedagogik yondashuvlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sinfni o'qituvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lab, talabalar reaksiyalarini diqqat bilan kuzatadigan laboratoriya sifatida qarash mumkin. Ushbu maqola reflektiv ta'limning ahamiyatini yoritishga va o'qituvchilarning ushbu yondashuv bo'yicha xabardorligini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada sinfdagi amaliyotda reflektiv yondashuvning zarurligi ta'kidlanib, o'qituvchilar o'zlarining dars samaradorligini reflektiv ta'lim orqali qanday oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sinf amaliyotlari, Refleksiya, Reflektiv ta'lim, O'qituvchi tayyorlash*

## РЕФЛЕКСИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ И ПРАКТИКА В КЛАССЕ

**Аннотация.** *Рефлексивная практика оказала значительное влияние на подготовку учителей и программы их профессионального развития, особенно в части педагогических подходов. Класс можно рассматривать как лабораторию, где учителя связывают теоретические знания с практическим обучением и внимательно наблюдают за реакцией учеников. Цель данной статьи — подчеркнуть значимость рефлексивного обучения и исследовать уровень осведомлённости учителей о данном подходе. В статье акцентируется необходимость применения рефлексивной практики в учебном процессе и демонстрируется, каким образом учителя могут повысить эффективность своей работы в классе через использование рефлексивного обучения.*

**Ключевые слова:** *Практика в классе, Рефлексия, Рефлексивное обучение, Подготовка учителей.*

## THE REFLECTIVE TEACHING APPROACH AND ITS APPLICATION IN THE CLASSROOM

**Annotation.** *Reflective practice has had a strong influence on teacher education and professional development programs, particularly in relation to pedagogical approaches. The classroom can be viewed as a laboratory where teachers connect educational theory with practical instruction and carefully observe students' reactions. This paper aims to highlight the significance of reflective teaching and to examine teachers' awareness of this approach. It emphasizes the necessity of reflective practice in classroom settings and demonstrates how teachers can enhance their classroom performance through reflective teaching.*

**Keywords:** *Classroom practices, Reflection, Reflective teaching, Teacher education.*

Bugungi kunda dunyo bo'ylab o'qituvchilarni tayyorlash va kasbiy rivojlanishining markazida refleksiya va reflektiv o'qitish turadi. Refleksiya va reflektiv o'qitish til o'qitishdagi mavjud yondashuvlarni baholashda muhim usullar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilar uchun refleksiya nafaqat kundalik sinf faoliyatini takomillashtirish, balki yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash uchun ham zarur ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi kunda o'qituvchilar an'anaviy o'qitish usuliga tayanadilar va odatda yangi mavzu tushuntiriladi va dars oxirida bir marta takrorlanadi. Bunday o'qitish tizimida o'qituvchilar o'z o'qitish metodlari samara berish

yoki bermaslikni aniqlay olmaydilar, bundan tashqari dars davomida yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklarini aniqlay olmaydilar. Natijada, dars sifatini tushishiga sabab bo‘ladi. Refleksiya orqali o‘qituvchilar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga eng mos va samarali bo‘lgan o‘qitish usullarini aniqlash imkoniga ega bo‘ladilar. Reflektiv amaliyot bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatini chuqurroq anglaydilar, kasbiy rivojlanishini baholaydilar, asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar hamda yanada faol va o‘ziga ishongan mutaxassisga aylanadilar. Shu sababli, yuqori sifatli o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga va reflektiv amaliyotga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib bormoqda, chunki faqatgina o‘qituvchilik tajribasining o‘zi har doim ham o‘qitish amaliyotining yaxshilanishiga olib kelavermaydi [1,237]

O‘qituvchilar talabalar orasida refleksiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular sinfdagi yondashuvlar orqali reflektiv amaliyotning qanchalik zarur va muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradilar. Bu holat refleksiya faqat vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yoki qisqa muddatli treninglar bilan cheklanmasligi kerakligini ko‘rsatadi. Reflektiv o‘qitish o‘qituvchilar zamonaviy va innovatsion pedagogik g‘oyalarga ochiq bo‘lishga undaydi va bunday g‘oyalarni so‘nggi ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish yoki kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etish orqali egallash mumkin.

O‘zlarining o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan munosabatlarini tanqidiy tahlil qilish orqali o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini takomillashtirishi va talabalarining ta‘lim natijalarini yaxshilashga hissa qo‘shishi mumkin. Sodda qilib mulohaza qilinganda, o‘qituvchilardan o‘zlarining kengayib borayotgan “bilimlar bazasi”ga tayangan holda sinf va maktab muhitida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni harakat jarayonidagi refleksiya (reflection-in-action) hamda harakatdan keyingi refleksiya (reflection-on-action) orqali anglash va ushbu muammolarni uzluksiz refleksiya, shuningdek, o‘z pedagogik amaliyotini kasbiy va tanqidiy jihatdan tahlil qilish orqali bartaraf etishni nazarda tutadi [2,45].

Refleksiya bilan shug‘ullanish ba‘zi bir o‘qituvchilar uchun murakkab bo‘lishi mumkin, chunki ular bu jarayonning aniq maqsadini ko‘rmasligi yoki hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjudligiga ishonch hosil qilmasligi mumkin. Tadqiqotchilar Zalipour, Impedovo hamda Khatoon Malik refleksiyani sinfdagi faoliyat va harakatlarni qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish jarayoni sifatida talqin qiladilar; bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘qitish hamda o‘rganish maqsadlariga erishishda yordam beradi [3,9]. Ularning fikricha, ta‘lim jarayonida pedagoglarning o‘z sinf amaliyotlari haqida qanday fikr yuritishini tushunishda samarali yondashuv sifatida refleksiv ta‘limning ahamiyati ortib bormoqda. Refleksiya keng ma‘noda shaxsning o‘z tajribalarini esga olishi, ular ustida chuqur mushohada yuritishi va yakunda baholashi orqali amalga oshiriladigan muhim amaliyot sifatida qaraladi. Reflektiv ta‘limda refleksiya asosan muammolarni turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqish orqali ularni chuqurroq anglashga xizmat qiladi, bu esa muqobil echimlarni aniqlash imkonini beradi. Saylagning fikricha, refleksiya o‘qituvchi bo‘lib shakllanish tushunchasini tadqiq etib, “shaxsiy e‘tiqodlar va tajribalar tanqidiy refleksiyaga hissa qo‘shadigan va reflektiv amaliyotchilarning asosiy belgisi hisoblanadigan muhim omillar ekanligini” ta‘kidlaydi [4].

Ushbu bildirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxsiy e‘tiqodlar va tajribalar reflektiv jarayonning markazida bo‘lishi lozim, chunki aynan ular o‘qitish amaliyoti va akademik ko‘nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘z faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchilar muammolarga yuzma-yuz kelishning ahamiyatini anglab etganlarida, ularda ijodkorlik kuchayadi va ular talabalarning o‘rganish jarayonlari bilan bog‘liq sinfdagi voqealarni chuqurroq tushunish, shuningdek, kelajakdagi maqsad va faoliyatlarni belgilash uchun turli strategiyalarni qo‘llash texnikalarini o‘rganadilar.

Reflektiv o‘qituvchilar odatda o‘zlarining avvalgi pedagogik tajribalariga tayanib, kelajakdagi o‘qitish faoliyatini takomillashtiradilar va shu orqali tahlil qilinmagan, odatiy o‘qitish usullariga asoslangan amaliyotlardan qochadilar. Reflektiv amaliyotni rag‘batlantirish va rivojlantirish turli yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Refleksiyaning turli usullari qatoriga reflektiv jurnallar yoki kundaliklar yuritish, hamkasblar tomonidan kuzatuv (peer observation), pedagog-trenerlardan fikr-mulohaza

88 (feedback) olish, darslarni tahlil qilish (lesson study) va amaliy tadqiqotlarda (action research) ishtirok etish, hamkorlikda o'rganish hamda refleksiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish kiradi.

O'qituvchilar bo'lajak o'qituvchilarni reflektiv amaliyotga samarali yo'naltirish uchun ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribalariga tayangan holda ishlashlari, dialogik jurnallardan foydalanishlari hamda o'qitish tajribalarini muhokama qilish maqsadida kichik va katta guruhlar doirasida munozaralar tashkil etishlari mumkin, bu esa refleksiyaning takomillashtirishga yordam beradi.

Shu sababli, reflektiv jarayondagi muhim bosqichlardan biri reflektiv amaliyot haqidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash hisoblanadi. O'qituvchilarda kuchli reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish nihoyatda muhim, chunki ulardan nafaqat rasmiy ta'lim jarayonida, balki butun kasbiy faoliyati davomida uzluksiz o'rganish talab etiladi. Refleksiv yondashuv asosida o'qituvchi sinf jarayonida yuzaga keladigan muammolarni angelaydi, amaliy echimlarni ishlab chiqadi va hamkasblarning faol ishtirokini rag'batlantiradi hamda yangi pedagogik g'oyalarni sinab ko'radi. Shaxsiy tajriba orqali bunday o'qituvchilar kasbiy jihatdan rivojlanadi, innovatsiya va ijodkorlik asosida kasbiy kompetensiyaga erishadi, talabalar esa ta'lim jarayonida yanada rag'batlangan va faol ishtirokchi bo'lib boradilar.

Ta'lim jarayonidagi reflektiv tafakkur kasbiy o'rganishning uzluksiz aylanmasi sifatida talqin etilishi mumkin bu jarayon reflektiv kuzatuv, bevosita (konkret) tajriba, mavhum konseptualizatsiya hamda faol tajriba o'tkazish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Refleksiv fikrlash va amaliy harakatlar doimiy va tugallanmas jarayon bo'lganligi sababli, ushbu tadqiqot reflektiv amaliyotlardan foydalanish orqali o'qitish jarayonida kuzatilgan sinf muammolarini bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan natijalarni aniqlashni maqsad qilib qo'yadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadlariga mos ravishda, ta'lim muhitida reflektiv xatti-harakatlarni o'rganishga qaratilgan interpretativ paradigma doirasidagi sifatli tadqiqot yondashuvi eng maqbul hisoblanadi. Interpretativ yondashuv o'qitish amaliyotlarining turli jihatlari va ularning talabalar (o'quvchilar) faoliyatiga ta'sirini chuqur tahlil qilishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki u ijtimoiy jarayonlarni shaxslarning subyektiv tajribalari va nuqtayi nazarlari orqali tushunishga urg'u beradi.

Tadqiqotda intervyu kabi sifatli tadqiqot usullaridan foydalanish orqali o'qituvchilarning reflektiv o'qitish amaliyotlariga oid chuqur va nozik (nyuansli) mulohazalarini aniqlash ko'zda tutilgan. Intervyu savollari ishtirokchilarning reflektiv o'qitish bo'yicha tajribalariga doir batafsil ma'lumotlarni olish maqsadida ishlab chiqildi. Shuningdek, savollar reflektiv strategiyalarning muayyan turlarini — masalan, kundalik (jurnal) yuritish, hamkasblar tomonidan kuzatuv (peer observation) yoki hamkorlikda o'rganish — hamda ushbu strategiyalarning talabalarning o'quv natijalariga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Intervyular ishtirokchilarning muayyan vaziyatga nisbatan o'z qarashlari, e'tiqodlari va hissiy kechinmalarini ularning o'z so'zlari orqali aniqlashga xizmat qiluvchi samarali ma'lumot yig'ish usuli hisoblanadi [5,23].

Ushbu tadqiqot doirasida o'qituvchilarning sinf jarayonida reflektiv ta'limni qanday amalga oshirishlari hamda bu yondashuvning o'quvchilar natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi. Ma'lumotlarni to'plash maqsadida o'qituvchilar bilan intervyular o'tkazilib, ishtirokchilar maxfiylikni ta'minlash uchun Ishtirokchi A va Ishtirokchi B deb nomlandi. Tadqiqot jarayoni axloqiy tamoyillar va huquqiy talablarga to'liq rioya qilgan holda olib borildi. Jumladan, ishtirokchilarga hurmat bilan munosabatda bo'linib, ularning shaxsiy ma'lumotlari himoya qilindi hamda tadqiqot ularga zarar etkazmasligi ta'minlandi.

Intervyu natijalarini tahlil qilish jarayonida ma'lumotlar orasidagi takrorlanuvchi naqshlar, mavzular va muhim g'oyalarni aniqlash maqsadida tematik tahlil va kodlash usullari qo'llanildi. Ushbu jarayon ma'lumotlarni tizimli ravishda tartibga solish va toifalarga ajratishni o'z ichiga olib, reflektiv pedagogika hamda uning o'quvchilar akademik yutuqlariga ta'siri bilan bog'liq asosiy jihatlarni aniqlashga xizmat qildi. Natijada, ta'lim jarayonida reflektiv yondashuvning ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beruvchi muhim xulosalar chiqarildi. Tadqiqotning

asosiy maqsadi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan refleksiv amaliyotlar, foydalanilayotgan strategiyalar va ularning o'quvchilar bilim va ko'nikmalariga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ushbu maqsadga erishish uchun ishtirokchilardan o'z pedagogik tajribalari hamda refleksiv ta'lim strategiyalari haqida fikr almashish so'raldi. Bu strategiyalar qatoriga refleksiv jurnal va kundaliklar yuritish, hamkasblar bilan o'zaro kuzatuv (peer observation), hamkorlikda o'rganish (collaborative learning) va boshqa refleksiv usullar kiritildi.

O'qituvchilarning refleksiv ta'lim haqidagi qarashlarini tahlil qilish jarayonida ishtirokchilar ushbu yondashuvning ta'lim usullarini takomillashtirish va kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdagi muhim rolini alohida ta'kidladilar. Ishtirokchi A refleksiv ta'limni o'qitish jarayonini tanqidiy tahlil qilish, shuningdek, ta'lim strategiyalarining "nima", "nima uchun" va "qanday" qo'llanilayotgani haqida mazmunli savollar berish qobiliyati sifatida izohladi. Ushbu fikr Finlay tomonidan ilgari surilgan refleksiv amaliyot tushunchasi bilan mos keladi, ya'ni refleksiya tajribadan o'rganish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ishtirokchi B esa refleksiv ta'lim o'quvchilarga dars mazmunini shaxsiy tajribalari bilan bog'lash imkonini berishini va bu holat bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishini qayd etdi. Ishtirokchilarning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, samarali ta'lim jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va tajribasini muntazam ravishda tahlil qilib borishini talab etadi. Bunday refleksiya shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Sinfdagi amaliyotlar bo'yicha bilimlarni rivojlantirish hamda mavjud muammolarni aniqlash va ularga mos echim topish qobiliyatini shakllantirish orqali bo'lajak o'qituvchilar yanada samarali pedagoglarga aylanishlari mumkin. Kundalik o'qitish va o'rganish jarayonlari ustida mulohaza yuritish o'qituvchilarga o'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olish, o'zgaruvchan ta'lim talablarga moslashish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, refleksiya o'qituvchilarning kasbiy o'sishini boshqaruvchi samarali vosita bo'lib, ularning pedagogik xulq-atvori va turli xil dars sifatini yaxshilashga qaratilgan metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari refleksiv ta'limning transformatsion salohiyatini yaqqol namoyon etadi, ya'ni u faqatgina o'qitish texnikalarini qo'llash bilan cheklanmay, balki chuqur tushuncha va o'quvchilarning faol ishtirokini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Refleksiv ta'lim o'qituvchilarni passiv ijrochilardan faol o'zgarish tashabbuskorlariga aylantiruvchi uzluksiz rivojlanish madaniyatini shakllantiradi.

Biroq tadqiqot ishtirokchilari refleksiv ta'limni amaliyotga joriy etishda qator muammolar mavjudligini ham ta'kidladilar. Ushbu muammolar qatoriga ta'lim muassasalaridagi texnik ta'minot bazasining etishmasligi, vaqt resurslarining cheklanganligi hamda yangi pedagogik yondashuvlarni qabul qilishga bo'lgan ehtiyotkorlik yoki istaksizlik kiradi. Ilmiy adabiyotlarning etishmasligi ham ushbu kuzatuvlarni tasdiqlab, refleksiv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish uchun tizimli islohotlar va doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarining zarurligini qayd etadi [6,18]. Mazkur muammolarni bartaraf etish va refleksiv ta'lim samaradorligini oshirish uchun multidisiplinar yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ta'lim muassasalari refleksiv ta'limni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, uni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash (pre-service teacher education) dasturlariga integratsiya qilishi hamda hamkasblararo hamkorlik va mentorlik orqali uzluksiz qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yo'lga qo'yishi lozim. Ikkinchidan, o'qituvchilar refleksiv jarayonni jadallashtirish va boyitish maqsadida raqamli vositalardan, jumladan refleksiv kundaliklar yuritish, darslarni video va audio yozuvlar orqali tahlil qilish, hamda guruhli refleksiya faoliyatlaridan samarali foydalanishlari mumkin [7,291]. Shuningdek, ochiqlik va o'zaro ishonchga asoslangan pedagogik muhitni shakllantirish muhim sanaladi, chunki bunday muhit o'qituvchilarga baholanish yoki tanqid qilinishdan qo'rqmasdan, o'z tajribalarini tanqidiy tahlil qilish va erkin fikr bildirish imkonini beradi. Ushbu muammolarga maqsadli echimlar tatbiq etilganda, refleksiv ta'limdan to'liq foydalanish, ta'lim sifati va o'quvchilar muvaffaqiyatini oshirish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning refleksiv ta'lim haqidagi qarashlari ushbu yondashuvning kasbiy rivojlanish va pedagogik amaliyotni transformatsiya qilishdagi salohiyatini

yaqqol namoyon etadi. Reflektiv ta'lim tanqidiy fikrlash va uzluksiz takomillashuv madaniyatini rivojlantirib, o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash bilan birga, o'qituvchilarning o'zgaruvchan ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Tadqiqot davomida sinf amaliyotlari bo'yicha olib borilgan suhbatlar jarayonida ularning o'z darslaridan qanday saboq olishlari, o'qitish jarayonini takomillashtirish usullari hamda o'quvchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilindi. Umuman olganda, turli reflektiv ta'lim strategiyalaridan foydalanish kasbiy pedagogik faoliyatni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilgan strategiyalar, jumladan reflektiv jurnallar, dars hisobotlari, audio va video yozuvlar hamda o'z-o'zini monitoring qilish usullari, endigina faoliyatini boshlayotgan o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, o'z amaliyotidan xabardorlikni oshirish va sinf jarayonida tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritish uchun mustahkam asos yaratadi.

Reflektiv ta'limni amaliyotga tatbiq etish borasida so'z yuritadigan bo'lsak, dastlab murakkab jarayon bo'lishi mumkin, chunki u o'qituvchidan vaqt, kuch va tizimli qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Tadqiqot ishtirokchilaridan biri o'z tajribasini quyidagicha izohladi: "Men darslarni turli manbalar va sohalardan keltirilgan imkon qadar ko'proq misollar bilan tushuntiraman, bunda mahalliy va global kontekstlarga alohida e'tibor beraman. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar bilimlarini o'z yashash muhitlari bilan bog'lay oladi va shu bilan birga global dunyoqarashni shakllantiradi." Bu fikr Yangning qarashlari bilan hamohang bo'lib, u tanqidiy refleksiya ko'pchilik o'qituvchilarda tabiiy ravishda shakllanmasligini, shu sababli ta'lim jarayonida refleksiya uchun mos imkoniyatlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi [8,11]. Shuningdek, dars amaliyotlari orqali o'z faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish masalasida Ishtirokchi B reflektiv ta'lim metodlarini qo'llash unga o'z o'rganish jarayonini anglash va tasdiqlash imkonini berganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'quvchilarni o'z faoliyatlarini savol ostiga qo'yishga undash va turli ehtimoliy echimlarni o'rganishga ochiq bo'lishga rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar Impedovo va Khaton Malik ham o'qituvchilar reflektiv amaliyotchi bo'lishlari uchun turli strategiyalarni qo'llashlari mumkinligini qayd etadilar [9,237]. Tadqiqotda ishtirok etayotgan Ishtirokchi B, shuningdek, o'quvchilarning bilimlarini baholash va chuqurlashtirish maqsadida dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar tashkil etishini, topshiriqlar berishini hamda tez-tez misollar keltirishni talab qilishini ta'kidlaydi. Umuman olganda, o'qituvchilar sinf jarayonida ko'plab muammolarga duch keladilar va bu holat doimiy refleksiya, baholash hamda o'qitish usullarini moslashtirib borishni talab etadi. Ushbu jarayon o'qitish metodlari, o'quvchilarning o'rganish uslublari va qiziqishlari, ta'lim muhiti hamda kengroq pedagogik muammolarni qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Reflektiv o'qitish davomida o'qituvchilar sinfda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilishi, kundalik muhim holatlarni qayd etishi, o'quvchilarning o'rganish jarayoni haqida hikoyalar bilan o'rtoqlashishi, hamkasblar va ota-onalar fikrlarini inobatga olishi hamda kasbiy va o'quv adabiyotlarga murojaat qilishi mumkin. Bu esa ta'lim materiallari va o'rganish muhitini o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilar orasida ham reflektiv yondashuvni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular shaxsiy tajribalar, reflektiv jurnallar va guruhli muhokamalar orqali o'quvchilarga o'z o'rganish jarayonlarini tahlil qilish va yaxshilash imkonini yaratadilar. Reflektiv jarayonning muhim bosqichlaridan biri refleksiya haqidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plashdir. Tadqiqot ishtirokchilari tomonidan qo'llanilgan samarali strategiyalardan biri kundalik (diary) yuritish bo'lib, dastlabki dars kunlarida har bir mashg'ulotdan so'ng ular dars jarayonida sodir bo'lgan voqealarni, o'z hissiyotlari va o'quvchilarning reaksiyalarini qayd etib borganlar. Ushbu usul ular tomonidan reflektiv ta'limni rivojlantirishda nihoyatda samarali deb qaraladi.

Olib borilgan tadqiqot va ilmiy muhokamalarimizdan xulosa qilishimiz mumkinki, har ikki o'qituvchi reflektiv ta'limni faol ravishda amaliyotga joriy etib, ijobiy natijalarga erishgan. Reflektiv amaliyot ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, o'qituvchilar undan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim. Zamonaviy ta'lim tizimlari an'anaviy, markazida o'qituvchi turadigan ma'ruza darslar, markazida o'quvchi turadigan amaliy darslar kabi ta'lim strategiyalariga ustuvor ahamiyat qaratishi zarur.

Refleksiya jarayoni orqali o'qituvchilar o'z pedagogik strategiyalarini qayta ko'rib chiqish, ularni takomillashtirish yoki mavjud amaliyotlarni davom ettirish zarurligini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu jarayon doimiy ravishda o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilar natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. O'qituvchilar samarali ta'lim metodlarini ongli ravishda tanlab, o'quvchilarning o'rganish uslublarini inobatga olgan holda faoliyat yuritganlarida, sinf jarayonida ijobiy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot reflektiv ta'lim yondashuvining samarali va ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. Shu bois, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari bo'lajak pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularni amaliy tajribalar ustida yo'naltirilgan refleksiya, o'z-o'zini tahlil qilish, baholash va uzluksiz kasbiy rivojlanishga undashi lozim. Agar refleksiya tahlil va amaliy o'zgarishlar bilan uyg'unlashmasa, u o'z samaradorligini yo'qotadi. Reflektiv amaliyotning haqiqiy kuchi esa o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirish imkonini berishidir. O'qituvchilarning pedagogik faoliyat jarayonida qabul qiladigan qarorlari nafaqat o'quvchilarning ta'lim natijalariga, balki o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchilar sinfda faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki tashkilotchi, fasilitator, yo'naltiruvchi, boshqaruvchi va ishonchni shakllantiruvchi rollarni ham o'z zimmasiga olishlari lozim. Bundan tashqari, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilardan muntazam fikr-mulohaza (feedback) olish muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon ta'lim metodlarini o'quvchilarning ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirish imkonini beradi. Natijada, o'qitish va o'rganish jarayonlari yanada samarali va mazmunli bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nguyen, C. D. (2017). Connections between learning and teaching: EFL teachers' reflective Practice. *Pedagogies: An International Journal*, 12(3), 237–255. DOI:10.1080/1554480X.2017.1356725
2. Schon, D.A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*, New York, Basic Books. <https://doi.org/10.4324/9781315237473>
3. Zalipour, A. (2015). Reflective practice: Teaching development unit. Retrieved from [https://www.waikato.ac.nz/\\_\\_data/assets/pdf\\_file/0006/360861/Reflective-Practice-June-2015.Pdf](https://www.waikato.ac.nz/__data/assets/pdf_file/0006/360861/Reflective-Practice-June-2015.Pdf).
4. Saylag, R. (2012). Self-reflection on the teaching practice of English as a second language: becoming the critically reflective Procedia: Social and Behavioral Sciences, 46, 38473851. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.06.158>.
5. Ary, D; Jacobs, L. C; Razavieh, A; & Sorensen, C. (2010). *Introduction to Research in Education* (8th ed). Belmont: Thomson Wadsworth.
6. Farrell, T. S. C. (2007). Reflective language teaching: From research to practice. Bloomsbury Academic. <http://doi.org/10.5040/9781474293281>
7. Farrell, T. S. C., & Hobbs, M. (2008). Supporting teachers in their reflective practice using online resources. *ELT Journal*, 62(4), 291-300. <http://doi.org/10.1093/elt/ccn049>
8. Yang, S. H., 2009. Using Blogs to Enhance Critical Reflection and Community of Practice. *Educational Technology and Society*, 12(2), 11-21.
9. Impedovo, M. A., & Khatoon Malik, S. (2016). Becoming a reflective in-service teacher: Role of research attitude. *Australian Journal of Teacher Education*, 41(1). <https://doi.org/10.14221/ajte.2016v41n1.6>
6. Nguyen, C. D. (2017). Connections between learning and teaching: EFL teachers' reflective Practice. *Pedagogies: An International Journal*, 12(3), 237–255. DOI:10.1080/1554480X.2017.1356725